

Talantli, tirishqoq talabalar taqdirlandi

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan mamlakatimiz yoshlariga juda ham katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jumladan, 2020-yil 25-dekabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tashabbusi bilan tashkil etilgan, mamlakatamiz yoshlari bilan o'tkazilgan "O'zbekiston yoshlari forumi 2020" katta tadbirini barchamiz ko'rib, guvohi bo'ldik. Ushbu Forum O'zbekiston Respublikasida birinchi marotaba tashkil etildi hamda mamlakatimiz yoshlari tomonidan ijobiy kutib olindi.



"O'zbekiston yoshlari forumi"da Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich yoshlarga qarata "Men har gal yoshlarni bilan uchrashganimda, sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, beba ho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman. Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o'z oldimizga ulkan marralarni qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lif, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'lnlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarni faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar." deya o'z nutqlarida aytib o'tdilar. Xabaringiz bor, 2021-yil nomi "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilingani ham Yoshlar bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim qatlami ekanligidan, ularni bo'lgan e'tibordan dalolat beradi. "Yoshlarga e'tibor kelajakka e'tibordir". Respublikamiz barcha hududlarida yoshlarni e'tibor markazida bo'lib, uchrashuv va tadbirlar o'tkazilmoqda. Bugun 2021-yil 22-yanvar kuni institutimizda faoliyat olib borayotgan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkilot fakultet yetakchilari, faol va tashabbuskor talabalar bilan Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektor Ruzimurot Choriev ochiq muloqot o'tkazib, talabalar bilan samimiy suhbatlashdi.



Dastavval, jamoat va tashkiliy ishlarda faol ishtirok etgan bir guruuh talabalar, barcha fakultet yetakchilariga institut rektori tomonidan berilgan rag'batlantirish pul mukofotlari talabalarga tantanali topshirildi. Keyin esa, har bir fakultet yoshlari yetakchilari yoshlari bilan ishslash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha o'z takliflari va fikrlarini berishdi. Zalda yig'ilgan faollar o'z takliflari, yangi loyihalari va muammolarini aytib o'tishdi. Har bir aytilan taklif, tashabbus va muammo yozib olindi va rejalgarda kiritilishi belgilab olindi. Shu yerning o'zida yechimini topgan masalalar ham bo'ldi. Yuzma yuz uchrashuv samarali va foydali bo'ldi.



Talabalar bilan muloqotda institut yoshlari bilan ishslash va ma'naviyat-ma'rifikat bo'limi, fakultet yoshlari bilan ishslash bo'yicha dekan muovinlari, institut psixologgi, institut matbuot kotibi, institut yoshlari ittifoqi yetakchilari, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash bo'limi hodimlari ham ishtirok etishdi. Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektormiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Eng faol 1000 nafar talabalar" guruhi a'zolari bilan institut rektori uchrashuvi bo'lishini prorektormiz ta'kidlab o'tdi. O'z vaqtini ayamay tashrif buyurgan va suhbatlashgan rahbarlarimizga talabalar nomidan rahmat aytamiz. Faol bo'ling aziz talabalar. Berilgan vaqt va imkoniyatlardan unumli foydalaning.